



**Quramboyev Alisher Maxsudovich,**  
*Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti tayanch doktoranti*  
*e-mail: quramboyevalisher@mail.ru*

# TURKISTON JADIDCHILIGI: ILM VA TARAQQIYOT UCHUN KURASH

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkistonda jadidchilik harakatining vujudga kelishi, uning asosiy maqsad va vazifalari, shuningdek, mintaqadagi siyosiy va ma'rifiy o'zgarishlarga ta'siri tahlil qilinadi. Jadidlar Turkistonni ilm-fan, ta'lim va madaniyat orqali rivojlantirishga intilganlar, ularning harakati ma'rifiy ongni yuksaltirish va milliy davlat qurish jarayoniga katta hissa qo'shgan. Maqolada jadidlarning Turkiston jamiyatidagi siyosiy erkinlik va ijtimoiy adolat uchun kurashlari ham yoritiladi.

**Аннотация.** В данной статье анализируется возникновение джадидистского движения в Туркестане в конце XIX начале XX века, его основные цели и задачи, а также влияние на политические и образовательные изменения в регионе. Джадиды стремились развивать Туркестан через науку, образование и культуру, их движение внесло значительный вклад в процесс повышения образовательного сознания и построения национального государства. В статье также освещается борьба джадидов за политическую свободу и социальную справедливость в Туркестанском обществе.

**Annotation.** This article analyzes the emergence of the jadidism movement in Turkestan in the late 19th and early 20th centuries, its main goals and objectives, as well as its influence on political and educational changes in the region. The jadids sought to develop Turkestan through science, education and culture, whose movement contributed greatly to the process of raising enlightened consciousness and building a national state. The article also covers the jadids' struggle for political freedom and social justice in Turkestan society.

**Tayanch soʻzlar:** *jadidchilik, Turkiston, maʼrifatparvarlik, siyosiy erkinlik, milliy ong, taʼlim islohotlari, Mahmudxoʻja Behbudiy, Abdurauf Fitrat.*

**Ключевые слова:** *джадидизм, Туркестан, просвещение, политическая свобода, национальное сознание, образовательная реформа, Махмудходжа бехбуди, Абдурауф Фитрат.*

**Keywords:** *jadidism, Turkestan, enlightenment, political freedom, national consciousness, educational reform, Mahmudkhuj Behbudiy, Abdurauf Fitrat.*

**Kirish.** XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkiston, Qrim, Kavkaz, Tatariston siyosiy-maʼrifiy jadidchilik harakati boshlandi. Turkistonda uning gʻoyalari XIX asrning 90-yillaridan yoyila boshlandi va XX asrning 30-yillarining oxirigacha oʻlka ijtimoiy-siyosiy hayotida muhim ahamiyatga ega boʻldi. Jadid soʻzi arabcha “yangi” degan maʼnoni anglatadi. Jadidchilikning asosiy maqsad va vazifalari:

- jamiyatda mutaassiblik, loqaydlik, qoloqlikka qarshi kurashish, xalqning yangi dunyoqarashini fanatizm va konservatizmdan holi boʻlgan holda shakllantirish, oʻlkada yangi usul maktablari tarmogʻini koʻpaytirish, turli maʼrifiy jamiyatlar, uyushmalar, teatr truppalari tuzish, xalqning siyosiy, madaniy ongini oʻstirish orqali Turkistonda yangi milliy demokratik davlat tuzish;

- Turkistonni qoloqlik, oʻrta asrchilik bidʼat xurofotlaridan holi qilish;

- xalqni, millatni maʼrifat orqali taraqqiyot yoʻliga olib chiqib, milliy davlat bunyod etish;

- konstitutsion, parlament idora usulidagi ozod va farovon jamiyat qurish;

- turkiy tillarga davlat tili maqomini berish;

- milliy pul birligi, milliy qoʻshin tuzish va boshqalar.

**Maqsad va uni asoslash.** Jadidlar “ozodlik, tenglik va adolat” shiori ostida ishladilar va xalqni ozodlikka eltuvchi yagona yoʻl bu – maʼrifat deb bilishdi. Ilgʻor gʻoyalarni tarqatishda maorif yoʻlini asosiy vosita deb bildilar. Jadidchilik harakatining namoyondalari Mahmudxoʻja Behbudiy, Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat, Isʼhoqxon Toʻra Ibrat, Choʻlpon, Gʻulom Zafariy va boshqalardir. Jadidchilik harakatining markazlari: Toshkent, Buxoro, Samarqand, Andijon, Xiva va boshqalar. Maʼrifatparvarlar absolyutizmga qarshi kurashdilar. Siyosiy erkinlik va inson huquqlarini yoʻqlab chiqdilar. Ular erishgan yutuqlari orasida eng salmoqlisi hukmron mafkuradan mustaqil boʻlgan xalq taʼlim tizimini yaratish va milliy matbuotga asos solinishidir. Jadidchilik harakati mamlakatda mustamlakachilik siyosatiga qarshi turuvchi asosiy maʼnaviy kuch sifatida maydonga chiqdi.

***Boshqa millatlarning boylari faqir va yetimlar uchun maktab va dorilfununlar soldururlar, faqir va yetimlarning o'qimog'i uchun voqf (istipendiya) lar tayin qilur. Butun Turkiston o'n boy elinda ming so'mdan bersa 25 bola uchun Toshkentda (diniy va zamoniy) bir pansionli va nahori mukammal maktab bino bo'lib, har yil hukumat maktabinda 50 bola tayyorlaydur***

“Jadidlarning xalq ma’rifati uchun kurashish dasturi uch asosiy yo’nalishdan iborat edi:

1. Yangi usul maktablari tarmog’ini kengaytirish;
2. Umidli, iqtidorli yoshlarni chet elga yuborish;
3. “Turli ma’rifiy jamiyatlar tuzish hamda ziyolilarning kuchli firqasini tashkil etishga qaratilgan gazetalarni chop etish” [1].

O‘z davrida Behbudiy Turkistonning kelajagini o‘ylar ekan, millatning taraqqiyoti borasida turli yo‘llarni qidirdi. Boylarga ham murojaat etdi. Boshqa yurtlarning boylari, badavlat kishilari o‘z xalqiga yordamlar berayotganligi haqida misollar keltirdi: “Boshqa millatlarning boylari faqir va yetimlar uchun maktab va dorilfununlar soldururlar, faqir va yetimlarning o‘qimog‘i uchun voqf (istipendiya)lar tayin qilur. Butun Turkiston o‘n boy elinda ming so‘mdan bersa 25 bola uchun Toshkentda (diniy va zamoniy) bir pansionli va nahori mukammal maktab bino bo‘lib, har yil hukumat maktabinda 50 bola tayyorlaydur”. Agar shunday bo‘lsaki, o‘n yillar ichida yaxshi-yaxshi muhandis, shifokor, huquqshunos, iqtisodchi kabi mutaxassislar yetishib chiqardi, deb umid qiladi. “Allon millatimiz boylaridan shuni ko‘z tutar. Xaloyiqni barbod etadurgan to‘ylarni emas, oh bu so‘zlarni anglaydurgan boylar bizda yetishganmi?”. Behbudiy agarda chetlarga borib o‘qish uchun yoshlarda istak bo‘lsa-yu, ammo o‘zi kambag‘al, ota-onasining qudrati yetmasa, Turkiston farzandlarining ilmi uchun maorif jamiyati yoki xayriya jamiyati tashkil qilish kerak deydi. Toki, bu jamiyat xalqdan mablag‘ yig‘ib millatning rivoji uchun uning farzandlarini o‘qitsin: “muhandis, muallim, zamona maktabdori, millatni homiysi ya’ni davlat dumasig‘a deputat, milliy sanoatxonalarimizni islohi, texnik tijoratxona, banklarda bizga yordam beruvchi ya’ni tijorat ilmini o‘qigan kammersant odamlarni yetishtirmoq kerakdur”. Shuning uchun ham Behbudiy xalqqa qarata aytadiki: “Behuda sarflarga ketadigan xarajatlarni ilmga sarflamoq kerakdur. Ilm bizning omilimiz, idealimiz, murodimiz, tilagimiz va muddaomizdir. Hozir barcha kuchni ilm olishga qaratmasak, zabun bo‘lurmiz”[2].

**Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi.** Jadidlar Turkistonda ilmga jiddiy e’tibor berishlari barobarida ayrim kamchiliklarga yo‘l qo‘yganliklarini ham ta’kidlab o‘tmoq lozim. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida ommalashgan otinoychilik qizlar uchun boshlang‘ich ta’lim vazifasini bajargan, ularga bibixalifa yoki bibiotinlar dars berganlar. Qizlar uchun ilm mutlaqo ortiqcha, qizlarni tikish, bichish va to‘qishga o‘rgatiglar, o‘qish va yozishni chetga surib qo‘yinglar, - degan jamoatchilik fikri ustunlik qilgan. Kamdan-kam qizlar o‘qishga yuborilgan.

Turkistondagi maktablarda qizlar ko'proq fors va turk she'riyatini o'rganib, yozuvga kam e'tibor berganlar. Maktablarni tugatishlari bilan qizlarning o'qishiga yakun yasalgan. Ba'zi joylarda qizlar maktabi bo'lsada, ota-onalar bir yildan keyin o'qishini to'xtatib qo'yar, odatda ularni juda yosh turmushga berib yuborar edilar. Ushbu tafovutni bir nechta sabablar keltirib chiqarmoqda: xotin-qizlarning ta'lim yo'nalishi ko'pincha ota-onalar tomonidan belgilanishi; oilada oliy ta'lim olish imkoniyati, avvalo, o'g'il bolalarga berilishi (ayniqsa, to'lov asosidagi o'qish bo'lsa); jamiyatda saqlanib qolgan stereotiplar tufayli qizlar faqat oilaviy hayotda asqotishi mumkin bo'lgan ijtimoiy kasblarni egallashga intilishi; ota-onalar qizlari uydan uzoqda ta'lim olishini istamasligi; hududlarda oliy ta'lim muassasalarining bir xil joylashmaganligi; ayollarning erkaklarga nisbatan erta turmush qurishi, farzand ko'rish va voyaga yetkazish vazifasi va hokazolar. Shuningdek, jamiyatda yetimlarning haq-huquqlari poymol qilingan. Buni Abdurauf Fitratning "Oila yoki oila boshqarish tartiblari" asarining "Yetimlar haq-huquqlari" bobida: "Ma'lumki, yetim tarbiyasini bo'yniga olmoq, uning jismoniy va ruhiy kamolotiga harakat etmoq, yetimga umuman va hech qanday zarar yetkazmasdan, ozor bermasdan o'z bolalari qatorida qabul qilib, otasizligini eslatmaslik insoniylik nuqtai nazaridan har bir kimsaga shartdir. Inson rahmdil va muruvvatli bo'lishi lozim. Lekin haqiqatni yashirish insongarchilik sha'nidan emas, shu bois baland ovoz bilan aytamanki, mamlakatimizda yetimlarning haq-huquqlari bajarilmaydi. Ko'plarimiz biror yetim tarbiyasini bo'ynimizga olsak, uning pulini zo'ravonlik bilan biror hojatimizga sarf qilamiz. Shu niyat bilan yetimning pulini olish Xudoga aslo xush kelmaydi" [3], deb ta'kidlashidan ham anglashimiz mumkin. Yetimlarning haq-huquqlari davlat tomonidan muhofaza qilinmagan. Fitrat jamiyatni yetimlarning mollarini himoyasini va tarbiyalarini o'z zimmalariga olishga undaydi. Bularning barchasi kambag'al nochorlarga ko'mak berish, ularni ijtimoiy himoya qilish jamiyat farovonligini ta'minlashda asosiy mezon ekanligi naqadar muhimligini o'z vaqtida tushunib yetilganligidan dalolat beradi. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, jadidchilik namoyondalarining asl nomlari qayta tiklandi. Rossiyaning mustamlakachilik zulmidan qutulish, xalqqa ziyo tarqatish choralari ko'rishda jadidlar harakatining ahamiyati katta bo'ldi. Prezidentimiz bejiz: "Bugungi kunda aksariyat odamlar, avvalambor, rahbarlar, davlat xodimlarining bilimsizligi, saviyasining pastligi, zamondan orqada qolayotgani, jadid bobolarimiz "jaholat" deb atagan illat islohotlar yo'lidagi jiddiy to'siq bo'lib qolmoqda [4], deya ta'kidlamadi.

***Ma'lumki, yetim tarbiyasini bo'yniga olmoq, uning jismoniy va ruhiy kamolotiga harakat etmoq, yetimga umuman va hech qanday zarar yetkazmasdan, ozor bermasdan o'z bolalari qatorida qabul qilib, otasizligini eslatmaslik insoniylik nuqtai nazaridan har bir kimsaga shartdir. Inson rahmdil va muruvvatli bo'lishi lozim.***

**Yakuniy qism.** XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda jadidchilik harakati mintaqaning siyosiy, ijtimoiy va madaniy hayotida muhim oʻzgarishlarni amalga oshirdi. Bu harakatning asosiy maqsadi jamiyatni qoloqlikdan chiqarish, ilm-fan va taʼlim orqali taraqqiyotga yetaklash edi. Jadidlar yangi usuldagi maktablarni tashkil etish, zamonaviy gazeta va jurnallarni nashr etish hamda yoshlarni ilgʻor gʻoyalari uchun ragʻbatlantirish orqali xalqni maʼrifatli qilishga intildilar. Jadidlarning saʼy-harakatlari Turkistonda siyosiy erkinlik, milliy ong va adolat gʻoyalarini yoyishga hissa qoʻshdi. Ular Rossiya imperiyasi mustamlakachilik siyosatiga qarshi turib, milliy davlat tuzish orzusida yashadilar va jamiyatni taraqqiyot yoʻliga olib chiqishni maqsad qildilar. Ularning ilgʻor gʻoyalari keyinchalik Turkiston mustaqilligi va madaniy yuksalishining asosi boʻlib xizmat qildi. Ularning gʻoyalari bugungi Oʻzbekistonning maʼnaviy va maʼrifiy hayotida ham dolzarb tajriba boʻlib qolmoqda.

#### Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Tagʻoyeva D. Mahmudxoja Behbudiy axloqiy qarashlarining oilaviy munosabatlar zahirida tutgan oʻrni // “Ijtimoiy sohani rivojlantirishning dolzarb muammolari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Guliston: Universiteti, 2024.
2. Abdurauf Fitrat. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. – Toshkent: Choʻlpon nomidagi NMIU, 2013.
3. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev. Insonparvarlik, ezigulik va bunyodkorlik – milliy gʻoyamizning poydevoridir. – Toshkent: “TASVIR” nashriyot uyi. 2021.